

KARTOSHKANING ZAMBRUG`LI KASALLIKLARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI

Panayeva Ayjamal

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti O'simliklar himoya qilish
(ekin tu'rlari bo'yicha) Bakalavr 4-kurs talabasi.

Durshimbetov Ispandiyar Kerimbergenovich

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti qishloq xo'jaligi falsafa
fanlari doktori. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12526035>

Annotatsiya. Kartoshkaning zambrug'li kasalliklari, zambrug'li kasallik belgilari, qarshi kurash choralari.

Kalti so'zlar: Zambrug'li kasalligi, fuzarioz, vertisillyoz, kalmaraz so'lishi kasalligini ko'payish va rivojlanish, qarshi kurash choralari.

FUNGAL DISEASES OF ARTICHOKE AND MEASURES TO CONTROL THEM

Abstract. Fungal diseases of potatoes, symptoms of fungal diseases, countermeasures.

Key words: reproduction and development of Zambrug'li disease, fusarium, verticilliosis, calamari wilt disease, countermeasures.

ГРИБНЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ ТОПИНЫ И МЕРЫ БОРЬБЫ С НИМИ

Аннотация. Грибковые заболевания картофеля, симптомы грибковых заболеваний, меры борьбы.

Ключевые слова: размножение и развитие болезни Замbrugли, фузариоз, вертициллез, болезнь кальмара, меры противодействия.

Kartoshka o'suv davrida turli zamburug'li, bakteriyali va virusli kasalliklar bilan kasallanadi. Bular orasida zamburug'li kasalliklar juda katta zarar etkazadi. Zamburug'lar o'simlik o'sib chiqqandan to hosil pishib o'suv davri tugaguncha zarar keltiradi.

Keyingi yillarda respublikamizda ochiq dala sharoitida etishtirilayotgan pomidor, kartoshka va shirin qalampir ekinlariga zamburug'li kasalliklardan fitoftoroz (*Phytophthora infestans*), alternarioz (*Alternaria alternata*) va fuzarioz (*Fusarium oxysporum f.sp. lycopersici*) juda keng tarqalib, hosildorlikka katta zarar etkazmoqda. Kuchli zararlangan maydonlardan 50-60 foizgacha, ayrim yillari ushbu kasalliklar tufayli ba'zi navlardan umuman hosil olish imkoniyati bo'lmayapti. So'ngi yillarda iqlim sharoitining keskin o'zgarishi oqibatida ilgari bizda uchramaydigan karantin mikroorganizmlar paydo bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun bu patogenlarni tarqalishi va zararini monitoring qilish, kasalliklarga chidamli navlarni topish, chidamli navlarni ajratib olib ishlab chiqarishga tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Patogenlarni bioekologiyasini o'rganish, kasalliklarga qarshi yangi fungisidlarni qo'llash va fermer xo'jaliklarga tavsiya qilish hozirgi kunning muhim masalalaridan biridir.

Kartoshka fuzarioz so'lishi (fuzarioz vilt)ni *Fusarium oxysporum f. tuberosi* va boshqa *Fusarium* turkumiga mansub gifomiset zamburug'lar qo'zg'atadi. Ular issiqsevar zamburug'lar bo'lib, butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham keng tarqalgan. Vertisillyoz viltidan farqli o'laroq, fuzarioz kartoshka tez so'lishiga olib keladi, bunda so'lish o'simlik tepasidan pastga tarqaladi. Pastki barglar sarg'ayadi, yuqori yarusdagilarida xlorotik dog'lar paydo bo'ladi,

o`simlik tepasi qizg`ish tus oladi, ildiz va ildizpoyalari chirishi, o`tkazuvchi to`qimalari miseliy bilan to`lib, tiqilib qolishi hamda zamburug` metabolitlari o`simlikni zaharlashi so`lish sabablari hisoblanadi.

Kartoshka vertisillyoz so`lishi (vertisillyoz vilt)ni *Verticillium albo-atrum* va *V. dahliae* zamburug`lari qo`zg`atadi. Kasallik ko`p mamlakatlarda, jumladan O`zbekistonda ham qayd etilgan bo`lsa ham, uning kartoshkada tarqalishi va hosilga zarari o`rganilmagan. So`lish odatda o`simliklar gullash davrida yoki keyinroq, ko`pincha pastki barglarning bir tomoni sarg`ayishi bilan boshlanadi. Poya pastki qismi qiya kesilsa, o`tkazuvchi to`qimalarda qo`ng`ir dog`larni ko`rish mumkin. Ko`pincha o`simliklar, so`limasdan sarg`ayadi, vaqtdan oldin etiladi va quriydi.

Kurash choralari. Chidamli navlar yaratish va qo`llash, ekish uchun quruq, sog`lom, fungisid (bakterisid) bilan dorilangan urug`lik tuganak ishlatish, nam tuproqqa ekmaslik; dalani keragidan ortiq sug`ormaslik; almashlab ekishni joriy etish;

Kartoshka tuganaklarining qora kalmaraz (rizoktonioz) kasalligini *Rhizoctonia solani* zamburug`i qo`zg`atadi. Zamburug` tuproqda butun dunyoda tarqalgan, O`zbekistonda omborxonalarda tuganaklarni zararlashi O`GEBI xodimlari tomonidan xabar qilingan (chop etilmagan), boshqa kuzatuvlarda uning kartoshka tuganaklarida juda kam uchrashi qayd etilgan. Rizoktonioz kartoshkaning tuganak, novda, poya, ildizpoya va ildizlarini zararlardi. Kasal tuganaklar ekilganda, rizoktonioz nihollarga katta zarar etkazadi, ularni juda siyrak qilib qo`yadi, chunki nihollar tuproq yuzasiga chiqmasdan yoki chiqqandan so`ng tezda chiriydi. Urug`lik tuganaklar chuqur ekilsa, nobud bo`lgan nihollar soni oshadi. Ildizpoya va poyaning pastki qismida biroz botiq, hajmi va shakli har xil bo`lgan qo`ng`ir dog`lar va yaralar, ularning ustida sarg`ish-qo`ng`ir gifalar qatlami paydo bo`ladi.

Kurash choralari. Urug`lik uchun sog`lom tuganaklar qo`llash, ularni sayoz ekish, kartoshka ekish qatorlariga tuproq fungisidi kiritish, dalada tuproq kuchli zararlanmagan hollarda ekishdan oldin samarali fungisid bilan dorilash, hosilni o`z vaqtida yig`ib olish tavsiya qilinadi.

REFERENCES

1. Бандаренко А.И., Буймистру Л.Д. Использование грибов в борьбе с болезнями овощных культур. Инф.Бюллетень ВПС МОББ.1985 № 12.
2. Билай В.И. Фузарий -Киев Наукова-думка.1977 120-236 С.
3. Буймистру Л.Д., Буймистру В.Е. Влияние триходермина и некоторых химических препаратов на поражаемость шалфея мустатного корневой гнилью. //Микробиологический метод борьбы с болезнями растений.-Кишинев.: Штица, 1984-с60-63.
4. <http://www.zin.ru>.
5. www.plantprotection.com